



УДК: 371.035

Эмурод СОАТОВ,

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институту ўқитувчуси,  
TVCHDPI jismoniy tarbiya va sport kafedrasи mudiri

dotsent A.Abdulaxatov taqrizi asosida

## BO'LAJAK PEDAGOGLARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINING INTEGRATSION IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola kompentensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlanirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, jismoniy tarbiya fanini o'qitish texnologiyalari va loyihalash, tarbiyaviy ishlar metodikasi, umumiy pedagogika fanidan o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqishda foydalanilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlanirish mezonlari va ko'sratichilaridan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo'lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan vatnparvarlik tuyg'usini rivojlanirishning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan interfaol shakl, metod va vositalaridan "Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi" qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan.

**Tayanch so'zlar:** Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika, bo'lajak o'qituvchilar, tarbiyaviy faoliyat, ta'lim, tarbiya, kompetensiya, modernizatsiya.

## ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗВИТИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

Данная статья разработана на основе компенсаторного подхода к развитию чувства патриотизма у будущих педагогов, методические и практические предложения использованы при разработке теории и методики физического воспитания, технологий и проектирования преподавания науки физического воспитания, методов воспитательной работы, образовательных программ и учебно-методического обеспечения в области физической культуры. Критерии и показатели развития гражданско-патриотической компетентности у будущих педагогов использовались в качестве показателей оценки воспитанности при введении понятия "непрерывное духовное образование". В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компенсации лояльности к Родине. Разработанные в рамках исследования интерактивные формы, методы и средства, основанные на компетентностном подходе развития чувства патриотизма, были использованы при разработке учебно-методического пособия "педагогическая наука и технология обучения".

**Ключевые слова:** Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика, будущие учителя, воспитательная деятельность, образование, воспитание, компетентность, модернизация.

## INTEGRATION OPPORTUNITIES FOR EFFECTIVE DEVELOPMENT OF A SENSE OF PATRIOTISM IN FUTURE TEACHERS

Annotatsiya

This article is developed on the basis of a compensatory approach to the development of a sense of patriotism in future teachers. methodological and practical suggestions are used in the development of the theory and methodology of physical education, technologies and design of teaching the science of physical education, methods of educational work, educational programs and methodological support in the field of physical culture. Criteria and indicators for the development of civil and Patriotic competence of future teachers were used as indicators for assessing education when introducing the concept of "continuous spiritual education". As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased. The interactive forms, methods and tools developed in the framework of the study, based on the competence-based approach of developing a sense of patriotism, were used in the development of the educational manual "pedagogical science and technology of education".

**Key words:** Patriotic consciousness, Patriotic worldview, moral-moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy, future teachers, educational activities, education, upbringing, competence, modernization.

**Kirish.** Fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi – bu talabalarning ijtimoiy faolligini, mas'uliyatini, huquqiy madaniyatini, etuk fuqaroligini shakllantirish va rivojlanirish, o'z xalqiga ongli, fidokorona, o'z ixtiyori bilan xizmat qilishga doimiy tayyor va konstitutsiyaviy burchini ado etishdir. Bu yo'nalish, avvalo, davlat va fuqaro o'rtasidagi

mavjud huquqiy normalarga asoslangan bo'lib, amalda bolalar va yoshlarga barcha zarur huquqlarni beradi va ularni amalga oshirishga o'z hissasini qo'shadi.

Tarixiy va o'lkashunoslik vositalari bo'yicha ta'lim – tarixiy va madaniy ildizlarni o'tmishga tegishli hissiy tajriba darajasida bilishga, Vatanning yagonaligini, uning taqdiri, u

bilan davomiyligini, ajdodlar va zamondoshlarning ishlariga daxldorlik bilan faxlanishga va jamiyatda va davlatda sodir bo'layotgan voqealar uchun tarixiy mas'uliyatga e'tibor qaratadi. Bu Vatan uzoq tarixi, jahon tarixiy jarayonida, jamiyat rivojlanishi va mustahkamlashda harbiy tashkilot, mentaliteti, axloq, urf-odatlari, e'tiqod va xalqimiz an'analarni tushunish, tashqi tahdidlardan uning himoya o'rghanish uchun yosh avlod turki rivojlanadi, mamlakat mustaqilligi uchun kurashgan turli avlodlarning qahramonona o'tmishi.

**Tadqiqitning maqsadi.** Qahramonlik va vatanparvarlik tarbiysi – unda tariximizdagи qahramonlik kasblari va muhim qahramonlik va tarixiy sanalarni targ'ib qilish, ota-bobolarimizning qilmishlaridan faxlanish, qahramonlik an'analariiga sadoqat va ularga daxldorlik hissi tarbiyalash.

Qahramonlik va vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo'nalishlari:

mamlakatning mardonavor o'tmishi, ajdodlarning buyuk xizmatlari va bugungi kunimi oliy ta'lrim muassasalarini ta'lrim-tarbiya jarayonida keng targ'ib qilish;

ta'lrim muassasalarida milliy tariximizning muhim qahramonlik va tarixiy sanalariга tayyorgarlik ko'rish va nishonlashga talabalarini faol jalb etish;

talabalar bilan ajdodlar jasorati va qahramonligi bo'yicha viktorina va kechalarni muntazam o'tkazib borish;

talabalarda qahramonlik an'analariiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish, ularni ketma-ket davom ettirishga tilish va boshqalar.

Tadqiqotning usuliyati va tashkil etilishi.

Sport va vatanparvarlik tarbiysi – jismoniy madaniyatni shakllantirish, kuch-quvvat, epchillik, chidamlilik, g'alabaga erishish irodasini tarbiyalash, sog'лом turmush tarzi va salbiy va zararli odatlarga to'siq qo'yishga qaratilgan.

Sport va vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo'nalishlari:

talabalar o'rtasida sog'лом turmush tarzini targ'ib qilish, bolalar va yoshlarda salbiy va zararli odatlarning paydo bo'lishiga qarshi;

ta'lrim muassasalarida talabalar uchun ommaviy sport tadbirdarini muntazam o'tkazish;

ta'lrim muassasalarida talabalar sport jamoalarini tashkil etish;

talabalar o'rtasida eng yaxshi sport yutuqlarini targ'ib qilish;

milliy tariximizning muhim va qahramonona sanalarda sport bayramlarini keng o'tkazish, fuqaravatanparvar qiyofasida sport komponentini yangilash;

6) ta'lrim muassasalarida ommaviy tashviqot va vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirdariga sport elementlarini kiritish va boshqalar.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish uchun konkursli metodika, o'yinli faoliyat (rolli o'yinlar, sahnalashtirish, "Rasmilar tilga kirganda" o'yini; loyiha yaratish ustida guruhi ish; ijodiy ishlarni bajarish (adabiy insholar, muhokamali esse, adabiy portret); turli vazifalarni bajarish bo'yicha ijodiy guruhdagi ishlar; muammoli savollarni muhokama qilish; qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash; biror masalalarni hal etishda o'zining shaxsiy nuqtai nazarini aniqlash va bayon etish; konkurslar) muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. Bunday mashg'ulotlarning o'yin xarakterida bo'lishi ijodkorlik muhitini hosil qilib, talabalardagi turli individual o'ziga xosliklarni namoyon bo'lishiga imkon beradi. Bunday tadbirdarini o'tkazish orqali talabalarning bilish faoliyati rivojlanadi. Ularni tashkil etishda eng muhimmi natija emas, unga tayyorlanish jarayonidagi talabalarning rollarning taqsimlay olishlari, birlashishlari,

kelisha olishlari, mustaqillik, tajabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarini namoyon eta olishlari hisoblanadi.

Intellektual-bilish o'yini "Adabiy qahramonlar kechasi"ga tayyorla-nishda talabalar asarlardagi voqealar, hodisalar, syujetlar, bosh qahra-monlar va personajlar haqidagi asosiya ma'lumotlarni takrorlaydilar. Qiziqishlariga ko'ra guruhlarga bo'linish amalga oshiriladi: bir guruh tomosha hamda sahna bezaklarini tayyorlaydi; ikkinchi guruh "adabiy kecha qahramon"lari bo'lish uchun tayyorgarlik ko'rishadi, uchinchi guruh "Tavsifini bayon eting" konkursiga tayyorgarlikni amalga oshiradi. Bu jarayonda albatta, o'qituvchining bolalarni qiziqtira olishi, tayyorlanish davrida aniq ko'rsatma tarzida yordam bera olishi juda muhim. Va asosiya natija talabalarning ko'zlarida qoniqish va quvonch hissini ko'ra olish, "Qachon yana bunday o'yin bo'ladı?" kabi savollarning tug'ilishidir.

Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ijodiylikni va bir paytning o'zida aniq shaxsiy sifatlarni shakllantirishni o'zida aks ettiruvchi vositalardan biri loyiha metodidir. Mazkur metodni qo'llash natijasida shunday xulosalarga keldik: talabalarini tadqiqotchilik metodi unsurlaridan foydalananishlariga erishish o'qituvchiga ta'lim oluvchilarni bilim olishlariga qanday yordam bera olish, ularning bilish faoliyatini yo'naltirishga imkon beradi. Mazkur texnologiya uch "zanjur"ni o'zida bir-lashtiradi: mustaqillik, faoliyat, natija. Loyihani bajarishda talabalar no'malumlik muhitiga tushib qolishadi, biroq aynan bu holat ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining vazifasi esa, loyihani bajarish jarayonida mantiqiy zanjir: tanlashga qiziqish – g'alaba (mag'lubiyat) – refleksiya – adekvat baho (o'z-o'zini baholash) – refleksiya (I. Chechel bo'yicha)ni to'g'ri amalga oshirishdir.

Badiiy asarlardagi vatanparvarlikka doir qarashlarni ajratib olishda talabalariga Rivin metodikasi yaxshi yordam beradi. Rivin metodikasi bo'yicha ishni abzaslar matn qismi sifatida tushuniladigan xatboshilarni o'rghanish tashkil etadi. Bunda har bir abzas tugallangan mazmunga ega bo'lishi, biri ikkkinchisini to'ldirib borishi zarur.

Har bir abzasning asosiy mazmunini ajratishda o'qituvchi quyidagi moduldan foydalaniшi mumkin: matndagi yangi so'z va so'z birikmalirini toping; qo'shimcha manbalardan foydalangan holda, ularning ma'nosini tushuntiring; siz ularni to'g'ri tushunganigizga ishonch hosil qilishingiz uchun yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing; abzasning ochqich so'zi yoki so'z birikmasini toping; nima uchun uni siz ochqich so'z, deb hisoblappingizni og'zaki tushuntiring; abzas g'oyasini aytib bera olish uchun ochqich so'z ishtirokida gap tuzing; mazkur so'z bilan bog'liq yana bitta gap tuzing va o'z nuqtai nazarining asosida yaxshi, deb hisoblappingizni tanlab oling; yaxshi, deb topganigizni daftaringizga yozib oling; agar, abzasda ochqich so'z bo'lmasa, mazkur abzasdagisi asosiy ob'ektlardan birini nomlang va u bilan bog'lab gap tuzing; o'qituvchi, talabalar tomonidan yoki darslikda berilgan savollarga javob tayyorlang; kursdoshlarining uchun savollar tayyorlang; avval o'rganilgan yoki o'qilgan materiallarni bilan bog'liqlikda olingan axborotlarni ko'rib chiqing.

**Erkin debatlар metodikasi.** Erkin debatlarni biz bir nechta parallel sinflar bilan o'tkazdik. Munozaraning mazkur shaklidan foydalananish talabalarning o'z nuqtai nazarlarini erkin aytish va o'z fikrda qolishlarini ta'lanning maqsadi sifatida qo'yadi. Erkin debatlari ishtirokchilar g'oyaga munosabatlari bo'yicha "tarafdar" va "qarshi" argumentlarini aytish ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak.

Erkin debatlarni o'tkazish bo'yicha bizning tajribamiz shuni ko'rsatadi, muammoni muhokama qilish samarador bo'lishi uchun yigirma kishidan iborat ishtirokchilar guruhini tuzish va qirq besh minut davomida o'tkazish zarur. Muhokama avvaldan tayyorgarlik ko'rish asosida, talabalar

orasida alohida hurmatga sazovor tajribali o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi kerak.

Erkin debatlarni o'tkazish metodikasi:

- munozarani tayyorlash vaqtida uning rahbari suhabatning umumiy yo'nalishini rejalashtirishi va rejalashtirilgan munozaraning mavzusini talabalarga oldindan e'lon qilishi kerak;
- debatning ochilishida o'qituvchi mavzuni eslatib o'tadi va muhokamani o'tkazish rejasi bilan tanishtiradi;
- boshlovchi reglamentga amal qilishi va barcha ishtirokchilarning so'zga chiqishlariga imkon berishi zarur;
- munozara davomida boshlovchi reja bo'yicha navbatdagi punktga o'tib borilishini va har bir punkt bo'yicha yakunini chiqarishni nazorat qiladi.

Tadqiqotning natijalarini.

Dissertatsiyaning "Bo'lajak pedagoglarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish samaradorligi" deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari yoritib berilgan.

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi pedagogik vazifalar hal qilindi:

1. Tajriba-sinov maydonchalari aniqlandi.
2. Tajriba-sinov muddatlari, bosqichlari belgilandi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan xususiy vazifalar aniqlandi.
3. Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari, ya'ni respondentlar soni belgilab olindi hamda tajriba va nazorat guruhiyaliga ajratildi.
4. Respondentlar tajriba-sinov ishlaringin amalga oshirilishidan xabardor qilindi.
5. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etuvchi mas'ullar aniqlandi.
6. Tajriba-sinov materiallari sifatida dastlabki ishlamar tayyorlandi va uning mazmuni tadqiqot bazasi sifatida universitet Kengashlarining yig'ilishlarida muhokama etildi.
7. "Talaba. Vatanparvar. Fuqaro" dasturining mazkur yo'nalishdagi pedagogik imkoniyatlari o'rganildi.
8. Anketa, test, suhabat, intervyu, kuzatish, sotsiologik tadqiqot kabi metodlar yordamida talabalarda ma'naviy kompetentligining rivojlanganligi aniqlandi.
9. Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan maqbul shakllar, metodlar va vositalar belgilab olindi.
10. Ishlab chiqilgan metodika ta'kidlovchi tajriba-sinov jarayonida sinovdan o'tkazildi hamda uning natijalarini tahlil etildi.
11. Ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashga erishish. Shu maqsadda tadqiqot ob'ekti hisoblangan tajriba-sinov maydonlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda taqqdim etilayotgan metodikadan foydalаниди hamda uning samaradorligi aniqlandi, zarur holatlarda uning mazmuniga o'zgartirishlar kiritildi.
12. Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi va nazorat qiluvchi tajribalar izchil tarzda tashkil etildi va ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratildi.
13. Tajriba-sinov ishlaringin natijalarini umumlashtiruvchi, ta'kidlovchi, o'zgartiruvchi, shuningdek, nazorat qiluvchi tajriba ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi, samaradorligi xususida yakuniy xulosa chiqarildi va umumiy natijalar matematik-statistik metod yordamida qayta ishlardi.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish bo'yicha tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirildi:

- tajriba-sinov ishlaringin aniq maqsadga yo'naltirilganligi;
- tajriba-sinov ishlaringin izchilligi, tizimliligi va uzbekligining ta'minlanganligi;
- muammoning nazariy asoslari bilan amaliy ishlamar orasida o'zaro aloqadorlikning mavjudligi;
- respondentlarning o'z imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqara olishlariga erishilganligi;
- tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishish uchun qulay pedagogik vaziyatning vujudga keltirilganligi.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish tajriba-sinov ishlaringin muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali ta'minlandi:

- tajriba-sinov materiallari mazmuni asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda tanlanganligi;
- tajriba-sinov materiallariaga mos keladigan didaktik vositalar, shakllar, usullar va metodlarning tanlanganligi;
- tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari – respondentlar sonini taqqoslash, qiyoslash imkoniyatini beradigan ko'rsatkich bo'la olishiga erishilganligi;
- respondentlarning tajriba-sinov ishlari mazmum-mohiyatidan to'laqonli tarzda xabardor etilganligi;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda tadqiqotchi yoki ushbu faoliyatni tashkil etishga mas'ul bo'lgan etakchi-pedagog bilan respondentlar o'rtasida samimiy muloqot hamda o'zaro hamkorlikning o'rnatilganligi;
- tajriba-sinov ishlarini yo'iga qo'yish maqsadida respondentlar bilan muloqot qila olish imkoniyatining yaratilganligi;

- tajriba-sinov ishlari natijalarining doimiy ravishda umumlashtirib tahlil etilganligi;

- umumi natijalarni qayta tahlil etish imkoniyatini beradigan matematik-statistik metodlarning aniqlanganligi.

**Xulosa.** Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usining rivojlanganligini aniqlashda quyidagi mezonlarga tayanildi:

1. Vatanparvarlik tuyg'usi yorqin namoyon bo'ladi (namunalni) – o'inka tarixi va hozirgi hayotiga qiziqadi, tabiatga mehr qo'yib, uni asrashni o'z burchi deb biladi. O'z uyi, mahallasini sevadi, vatanining buyuk kishilari bilan faxrlanadi.

Vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini biladi, Vatanga, millatiga xiyonat qilgan kimsalarga o'z shaxsiy munosabatlarini ifodalay oladi. O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning vakillari uchun O'zbekiston yagona Vatan ekanligini anglaydi.

2. Vatanparvarlik tuyg'usi namoyon bo'ladi, lekin hali ehtiyojga aylangani yo'q, kursdoshlari jamoaning nazorati talib etiladi (yaxshi) – Vatanning tarixi va madaniyati bilan qiziqadi, kursdoshlari va o'quvchilar bilan vatanparvarlik bo'yicha ishlar olib boradi. Atrofdagi kishilarga g'amxo'rlik qiladi, mehr-shafqat ishlarida ishtirok etadi, ammo boshqalardan buni talab eta olmaydi.

3. Vatanparvarlik tuyg'usi nisbatan kam namoyon bo'ladi (qoniqarli) – Vatan tarixi bilan kam qiziqadi, u bilan bog'liq ishlarni faqat nazorat ostidagina bajaradi va qatnashadi.

4. Vatanparvarlik tuyg'usi juda kam namoyon bo'ladi (qoniqarsiz) – Vatanning tarixi va madaniyati bilan qiziqmaydi, e'tiborsiz.

## ADABIYOTLAR

1. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2001. – 136 b.

2. Балагланов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук....автореф. – Алматы: 2004. – 23 с.
4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.
5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан тўйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманистические знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классах казахской школе в процессе изучения родной литературы (На материале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
10. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
12. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.
13. Клименко И.М. Формирование патриотизма в процессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.
14. Кривых С.В. Педагогические основы патриотического воспитания младших школьников. – Новокузнецк: Изд. ИПК, 2002. – С.8; С.16.
15. Левина Н.А. Типологические особенности развития чувств патриотизма у младших школьников: Автореф. дис. ...канд.псих.наук. – Тамбов, 2004. – 22 с.
16. Матушкин С.Е, Ипполитова Н.В. Сущность и особенности патриотического воспитания в современных условиях. – Курган, 2001. - №1(7). – С.6.
17. Новые ценности образования: Тезаурус для учителей и школьных психологов. / Под.ред. Н.Б.Крылова. – М., 1995. – 20 с.
18. Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сборник материалов из Интернета. / Сост. С.Махкамова. – Ташкент, 2003. – с.65.
19. Педагогический энциклопедический словарь / Гл.ред. Б.М. Бм-Бад. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с.
20. Рожков М.И. Организация воспитательного процесса в школе. – М.: Гуманит. Изд.центр ВЛАДОС, 2001. – 256 с.
21. Рындак В.Г. Методологические основы образования. – Оренбург, ОГАУ, 2000. – 192 с.
22. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
23. Степанов Е.Н. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. – М.: ТЦ Сфера, 2002. – 160 с.